“PEDRO PARAMO” QISSASIDA MAGIK REALIZM.

Mavlonova Madina Bahrom qizi
Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti :o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 3-bosqich talabasi.
mavlonovamadina2005@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17512167

Annotatsiya. Ushbu maqolada Lotin Amerikasi adabiyoti vakili Xuan Rulfo tomonidan yaratilgan “Pedro Paramo” qissasidagi magik realizm unsurlari tahlil qilinadi. Asardagi tirik va o’lik obrazlarning bir vaqtning o’zida mavjud bo’lishi, ruhiy iztiroblarning afsonaviy tarzda ifodalanishi magik realizmning o’ziga xos badiiy ko’rinishidir.

Kalit so’zlar: Magik realizm, Lotin Amerikasi adabiyoti, mif va eposlar.

Аннотация. В данной статье анализируются элементы магического реализма в рассказе «Педро Парамо», созданном Хуаном Рульфо, одним из ярких представителей латиноамериканской литературы. Одновременное присутствие в произведении живых и мертвых предметов, мифическое выражение душевных терзаний – своеобразное художественное проявление магического реализма.

Ключевые слова: магический реализм, латиноамериканская литература, мифы и эпосы.

Annotation . This article analyzes the elements of magical realism in the story "Pedro Páramo" created by Juan Rulfo, one of the prominent representatives of Latin American literature. The simultaneous presence of living and dead objects in the work, the mythical expression of spiritual anguish is a peculiar artistic manifestation of magical realism.

Keywords: Magical realism ,Latin American literature, myths and epics.

Lotin Amerikasi adabiyotida magik realizm uslubi XX asrning o’rtalarida jahon adabiyotida yang yo’nalish sifatida tan olingan. Magik realizmda dunyo real holatda tasvirlanib, sehr elementlaridan foydalaniladi. Bu adabiy oqimda xayol va haqiqat birlashtirilib ifodalanadi.

Bir qarashda magik realizmni (sehrli realizm) fantaziya janriga ham o’xshatishimiz mumkin, lekin ularning o’rtasida bir necha farqlar mavjud.

Fantaziya janrida yozilgan asarlarda ko’pincha voqealar haqiqatdan ajralib turadi. Meksikalik mashhur yozuvchi Xuan Rulfoning ”Pedro Paramo “ asari magik elementlar bilan yo’g’rilgan qissadir.

Qissadagi voqealar dastlab noaniq va sirli tasvirlanib , o’quvchini haqiqat va illyuziya o’rtasida adashishga majbur qiladi. Magik realizm elementlariga qissadagi ruhiy va jismoniy olamlar o’rtasidagi bog’liqlik , tiriklik va o’lim o’rtasidagi noaniq chegaralar, insonlar vafot etsa ham ularning ruhlari jismoniy dunyoda paydo bo’lishi , hali tirik bo’lgan boshqa odamlar bilan muloqot qilishini keltira olamiz.

Magik realizm janri an’anaviy realizm bilan mistik va g’ayritabiiy unsurlarni uyg’unlashtiruvchi adabiy yo’nalish bo’lib, uning ildizlari xalq og’zaki ijodi ,mif va eposlarga borib taqaladi

Lotin Amerikasi folkloriga e’tibor qaratsak, mif va eposlar sehrga va magik elementlarga boy.Tabiiyki, xalq uchun avvaldan tanish bo’lgan mavzuda yaratilgan adabiy oqim qolipga solingandan so’ng, bu oqimda yaratilgan asarlar ijod cho’qqisiga ko’tarildi. Mashhur Italyan yozuvchisi va dramaturgi Massimo Bontempelli na’zari bilan qaraganda : “ Ikki reallikdan –

ichki va tashqi reallikdan iborat inson dunyosi aks etib, bunda "real olam" va "tasavvur olami" o'zaro uyg'unlashdi.XX asrning ushbu qo'sh dunyodan tuzilgan murakkab , pajmurda qiyofasini esa sir-u jumboqlar , sarguzashtlar tasvirisiz ,yangi asotir-u afsonalar yaratmay turib, "chizib" bo'lmasdi ".

Xuan Rulfoning "Pedro Paramo "qissasini to'laligicha magik realizm yo'nalishida yozilgan asar deya olmaymiz. Lotin Amerikasi adabiyotining standart talqini bo'yicha qissaning ayrim joylari va voqealar rivojida magik realizmning unsurlari uchraydi ,xolos.

Qissadagi magik realizm unsurlari turli xil ramziy ma'no ham kasb etadi. Asarning boshlanishi Xuan onasining vasiyatiga binoan otasi Pedro Paramoni topish uchun Komalaga yo'l olishidan boshlanadi. Dastlabki , magik elementlardan biri bu Komala shahri. Negaki, Xuan Komala shahriga yetib borganida ko'radiki,haqiqatan vayronaga aylangan shahar. Lekin shaharning ichiga kirgani sari uylarning paydo bo'lishi , allaqachon o'lgan odamlarning ruhlari u bilan suhbatlashishlari magik elementlarga namunadir.Xuan Komalada Abundio , Eduviges va Damianani (arvohlarini) topadi va ular bilan suhbatlashadi. Ular Xuanga shahar voqealarini aytib berishadi.Komala shahri arvohlar tomonidan ta'qib qilinayotgan paytda Xuan ikki dunyo o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rib, qo'rquvdan vafot etadi va Dorotea bilan birgalikda umumiy qabrga dafn qilinadi.Qabrda bo'lganida uning ruhi Pedro Paramoning hayotini boshidan o'tkazadi va otasining taqdirini tushunib yetadi. Hikoyaning mana shu qismigacha bo'lgan voqealiklarda magik realizm unsurlarini uchratishimiz mumkin.

Yuqorida ko'rganimizdek, asar odatiy sarguzasht qissa sifatida boshlanadi va magik realizm unsurlariga boyib boradi. Ular real hayot va arvohlar dunyosi birlashtirilganligi, ikki dunyo o'rtasidagi muvozanat buzilib, makon va zamonning qorishtirilganligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Xolbekov M. "Sehrli realizm jozibasi ". Jahon adabiyoti,2012.
2.Rustam Ibragimov.Ilmiy fantastika va magik realizm uyg'unligi.
3.Xuan Rulfo. "Pedro Paramo" qissa.